BUDJETDAN MOLIYALASHTIRILADIGAN MUASSASALARDA BUDJET NAZORATINI TIZIMI

Kuliev Komiljon Shuxratovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
budjet nazorati, budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar, moliyaviy nazorat, moliyaviy boshqaruv, budjet mablag‘lari, moliyaviy intizom.

Abstract
Ushbu maqolada budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda budjet nazorati tizimi tahlil qilinadi. Budjet mablag‘larining samarali va shaffof taqsimlanishi hamda foydalanilishi uchun nazorat mexanizmlarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, budjet nazorati tizimining asosiy komponentlari, ularning funksiyalari va muassasalardagi amaliyotda qo‘llanilishi o‘rganiladi. Maqola davlat moliyaviy boshqaruvida nazorat tizimining rolini oshirish va moliyaviy intizomni ta’minlash bo‘yicha takliflar beradi.

Davlat budjetining samarali ijrosini ta’minlashda budjet intizomiga rioya qilish, uning samarali tadbirlari tizimini yanada faollashtirishning nazariy va amaliy masalalari iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida uta ahamiyatli va ilmiy tadqiq uchun dolzarb muammolardan bulib qolayotir.

Budjet intizomini mustahkamlashga oid muammolar bo‘yicha uzining muhim hissalarini qushgan xorijlik olimlar qatoriga E.Lorens., Dj. Lobbek., F. Defliz, Dj. Robertson va boshqa iqtisodchi-olim va mutaxassislarni kiritish mumkin. Shuningdek, Yu.A. Danilevskiy, I. A. Belobjeskiy, N. T. Beluxa, E. A. Voznesenskiy, S.O. Shoxin, A.D. Sheremet va boshqalar bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan yaqin xorij davlatlari iqtisodchi-olimlaridandir.

O‘z navbatida, Vatanimiz iqtisodchi-olimlari ham ushbu muammolar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi budjet amaliyotining tahlili asosida ilmiy tadqiqning xazinasini uzlarining maqola va ilmiy chiqishlari orqali yanada boyitganlar. Ular qatoriga Q.R.Sobirov, O.O.Olimjonov, T.S.Malikov,

M.Sh.Sharifxujaev, R.A.Karimov, A.V.Vahobov, O.K.Iminov, N.X.Xaydarov, M.B.Nurmurodov, J.A.Quchqorov, Q.T.Juraev, Q.N.Jamolov, A.Yah'yoyev va shu kabi iqtisodchi-olimlarni kiritish mumkin.

Budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda budjet nazoratini amalga oshirishning asosiy bosqichlari aniqlanib olingandan so‘ng har bir bosqichda budjet nazoratining umumiy jarayonida tashlanishi mumkin bo‘lgan qadamlarni oldindan belgilab olish zarur. Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, “Budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda budjet nazoratini amalga oshirish uchun tayyorgarlik kurish” deb nomlangan birinchi bosqichda tashlanishi lozim bo‘lgan qadamlar quyidagilarga qaratilishi kerak:

1. Budjet nazoratini amalga oshirish uchun dastlabki (boshlang‘ich) rejalashtirish ishlarini amalga oshirish;

2. Budjet nazorati bo‘yicha izlanish (tadqiqot) o‘tkazish va boshlang‘ich tasavvur hosil qilish;

3. Budjet nazoratini amalga oshirishni rejalashtirish.

Shunga mos ravishda budjetdan moliyalashtirilayotgan muassasalarda budjet nazoratini amalga oshirishning taklif etilayotgan standartlariga muvofiq budjet nazorati 1-bosqichining 1-qadamida nazorat obyekti tanlanishi, 2-qadamida nazorat obyekti bilan tanishish, uning faoliyatini anglab olish, tashkilotning ichki nazorat tizimini o‘rganish va baholash kerak va nihoyat, 3-qadamda esa, budjet nazoratini rejalashtirish, nazoratning mavjudligi va riskini aniqlash hamda budjet nazorati o‘tkazishning turi, shakli va usulini aniqlash zarur.

“Budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda budjet nazoratini olib borish” deb nomlangan 2-bosqichda quyidagi ikki qadam tashlanishi kerak:

1. Budjet nazorati dalillarining mavjudligi va olinishi bo‘yicha nazorat jarayonlarini amalga oshirish;

2. Budjet nazorat natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

Ikkinchi bosqichning 1-qadamida taklif etilayotgan standartga muvofiq quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

- budjet nazorati utkazilayotgan tashkilot rahbari yoki unga nisbatan yuqori turuvchi muassasa rahbari bilan muloqot olib borish;
- budjet nazoratini amalga oshirish jarayonidagi aloqador tomonlar bilan buladigan operatsiyalar hisobini yuritish;
- budjet nazoratidagi tashkilot yoki uning yuqori muassasasi rahbariyati tomonidan taqdim etiladigan tushuntirishlar bilan tanishish;
- auditorlik tashkiloti xizmatidan foydalanish;
- ichki auditorlar ishlaridan foydalanish;
- ekspert xizmatlaridan foydalanish;
- boshqa nazorat organlari ishlaridan foydalanish;
- buxgalteriya hisobining boshlang‘ich va taqqoslama ko‘rsatkichlarini nazorat qilish;
- buxgalteriya hisobidagi baholi miqdorlar nazorati;
- boshqaruvning turli xil obyektlari va sohalari nazorati bo‘yicha maxsus standartlarga rioya qilish;
- budjet nazoratidagi tashkilot faoliyatining nomuvofiqlikka yul quyilishi oldini olish;
- istiqboli belgilanayotgan moliyaviy xujalik ma’lumotlarini o‘rganish;
- axborotlarni yig‘ish, tizimga solish va hujjatlashtirish;
- ma’lumotlarni baholash, analitik jarayonlar va nazorat obyekti to‘g‘risidagi fikrlarni shakllantirish;
- budjet nazorati dalillarini tuplash;
- budjet nazoratini rasmiylashtirish;
- budjet nazorati jarayonidagi ishlar sifatini nazorat qilish;
- budjet nazoratini o‘tkazishda ziddiyatli ta’sir asoslari (dalillari)

aniqlangan hollarda nazoratchilar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- budjet intizomiga rioya qilinmasdan muassasada xatolik, suiste'mollik, muttahamlik va boshqa dalillar aniqlanganda nazoratchilar faoliyati tartibga solish.

Yuqoridagilarning davomi sifatida 2-bosqichning 2-qadami sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilmog'i lozim:

- budjet nazorati hisobotini tuzish tartibini aniqlash;
- budjet nazorati to'g'risidagi hisobotni imzolash muddati va nazoratdagi xujalik sub'ekti tomonidan hisobotni tuzish muddatidan keyingi yuz bergan holatlarni unda aks ettirish hamda ularga tegishli ma'lumotlarni taqdim qilish.